

MASNAVIY

Arzi ahvoli bu faqiru hazin,
Bajanobi muhibbi ibrat bin.

Ya’ni men bor edim muhaqqari dun,
Xoksori kam e’tibori zabun.

Davlati validayni pushtu panoh,
Ham yigitlik g‘ururi hodiysi roh.

Havasi johu manzilu ma’vo,
Tushti boshimg‘a yana ko‘p savdo.

Rind ahlig‘a raftu omad deb,
Mone’ elni ko‘rub xushomad deb.

Qanda bir bazm bo‘lsa hozir edim,
Ko‘p tamosho ko‘rarga nozir edim.

Hama el suhbatimg‘a tolib edi,
Orzular ko‘ngulga g‘olib edi.

Izzatim, hurmatim fuzunroq edi,
Har taraf borg‘ali yo‘lim oq edi.

Bandadin ehtiyoj yo‘q erdi,
Ko‘nglimiz bu sababga to‘q erdi.

Kunda ko‘p mehmon kuzatmak ila,
Birin olib, birin uzatmak ila.

Qanda bo‘lsa muhabbat ahli-yu, dog‘,
Aylar erdi bu notavonni so‘rog‘.

Men ham onlar bila bo‘lub xursand,
Na g‘ami uyu, na zanu farzand.

Mutaaddid haqirxona qilib,
Mehmon kelgali bahona qilib.

Yo‘llari uzra intizor edim,

El orosida e'tibor edim.

Umr bori bu yo'lda bo'ldi ado,
Emdi o'tgan kunimga vovaylo.

Qarilig' qirq yosh moba'di,
Nahslikdur bu yo'l, ul sa'di.

Bo'ldi farzandlar barisi kasir.
Manga bo'ldi bu muqtazoyi zamir.

Kim alar soyasida bo'lsam pir,
Ula turg'onda qilg'usi tavfir.

Jonim osoyishi alar biladur,
Shomning ziynati sahar biladur.

Ya'ni farzandlar mulozim erur,
Xizmatim barchasig'a lozim erur.

Bo'lushurlar o'largacha manga yor,
Har na amr aylasam erur tayyor.

G'alatu behavo deb ekanman,
So'zlarim ko'p xato deb ekanman.

Hayf molu manol behuda sarf,
Ki ani aylagay ziyon ila harf.

Manu jonom bilur na o'tti manga,
Osmondin na javr yetti manga.

Ikki o'g'ilu besh qiz barisi,
Har biri bo'ldilar bir uy egasi.

Har kim o'z ro'zgori birla xush,
Ko'hna vayronada menu boyqush.

Ko'rdilarkim atoda yo'q dirham.
Raftu omadni qildilar barham.

Volidalari bevafo bo'ldi,

Bizga bo‘ldi, nakim jafo bo‘ldi.

Ushbu qarridin etmadilar yod,
Aning uchun menu ko‘ngul noshod.

Necha manzumani savod etsam,
Men aningla ko‘ngulni shod etsam.

Eyki, farzand deb yig‘arsan mol,
Sanga ham bor bu sifatlik hol.

Bersa farzandingga xudoyim zar,
Sendin ar qolmasa ham anga yetar.

Ul ham ul bir egani maxluqi,
Anga ma’lum erur boru byo‘qi.

Bersa nekim hazoyini to‘ladur,
Dema xarj o‘lg‘on ila kam bo‘ladur.

O‘zungga masrif ayla boringni,
Xush kechur umru ro‘zgoringni.

Bo‘la olsang mujarrad o‘l, ey yor,
Kadxudo bo‘lmaq‘il basad zinhor.

Kadxudoliqqa mubtalo bo‘lma,
Xotun uchrasha oshno bo‘lma.

Gar chiday bilmasang, bilib qil ishing,
Bo‘lmaq‘il xoru zor yozu qishing.

Umr yoshdin o‘tar, havas dildin,
Oyog‘ing hech uzulmagay gildin.

Koru boring erur pushaymonlig‘,
Bori sudu ziyon parishonlig‘.

Ko‘r meni xolimi-yu, ibrat ol,
Mendin o‘tgan na ersa yodingga sol.

Menda ham bor edi bu xil kirdor,

Oxiru oqibat bu bo‘ldi kor.

Ro‘zgor ahli ichra xor o‘ldum,
Advani ahli ro‘zgor o‘ldum.

Manga yo‘q g‘amgusoru shafqatliq.
Ahli avloddin muravvatliq.

Degay otam qoshida bor bo‘lay,
G‘amu shodi yetishsa yor bo‘lay.

Bir quruq cho‘bi bed bo‘lmishman,
Hamadi noumed bo‘lmishman.

Emdi manda na orzu, na havas,
G‘ayri tufrog‘ uzra ko‘milmagu bas.

Emdi bu so‘zni ixtisor qilay,
Naf’i yo‘q, yuz yozay, hazor qilay.

Xatm etay onchi hasbi holimni,
G‘azaliyotimi, maqolimni.